

KUNNING ASOSIY MAVZUSI – KORONAVIRUSGA QARSHI KURASH



Ayni kunda tumanimizda koronavirus infeksiyasi tarqalishini oldini olish va unga qarshi kurashish doirasida keng ko'lamli targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda. Tuman hududidagi korxonatashkilot va muassasalarni zararsizlantirish bo'yicha tuman SEOM xodimlari tomonidan amaliy ishlar olib borilayotir.

 - Kasallikni oldini olish maqsadida SEOM xodimlaridan iborat mobil brigadalar tashkil etilgan bo'lib, brigada xodimlari bevosita mahallalarga chiqib, aholini emlash, hamda PZR testi olish ishlarini amalga oshirishayapti. Tuman SEOM idorasi va markaziy poliklinikada ham aholini emlash ishlari malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshirilmoqda. So'x tumani fuqarolaridan yagona talab va iltimosimiz: befarq bo'lmanglar va joriy etilgan tartiblarga qat'iy rioya qiling, - deydi biz bilan so'hbatda So'x tuman SEOM bosh hakimi Manuchehr Ahroriy.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2021-07-17 15:08:26